



OLTIARIQ TUMANINING GEOGRAFIK O'RNI VA IQTISODIYOTI

Alijonova Yodgoroy Toirjon qizi
Andijon davlat Pedagogika institute talabasi

Anatatsiya: *Maqolada Oltiariq tumanining tabiiy geografik o'rni, relyefi va geologik tuzulishi, iqlimi, ichki suvlari, o'simlik va hayvonot dunyosi keng yoritilgan. Shuningdek aholi soni hamda yangi korxonalar haqida bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *Oltiariq, relef tuzilishi, iqlim, aholi, o'simliklar, hayvonlar, Katta Farg'ona kanali, iqtisodiyot, korxonalar.*

Kirish: Oltiariq tumani Farg'ona viloyatining markaziy qismida joylashganligi, muhim transport yo'llarining o'tganligi, iqlim sharoitining qulayligi tumanda ishlab chiqarish, dehqonchilik va tadbirkorlik, madani-ymaishiy sohalari va savdo-iqtisodiy munosabatlarining rivojlanishiga muhim omil bo'lmoqda. Oltiariq bugun tillorang va mazasi tilni yoradigan uzumlari bilan butun dunyoga ma'lumu mashhur bo'lmoqda. Bunda Davlatimiz rahbari tomonidan tomorqachilarga yaratilayotgan qulay sharoitlar bosh omil bo'lib xizmat qilmoqda. Endilikda ushbu tuman tajribasi yurtimiz bo'ylab ommalashadi va ushbu soha yana taraqqiy etadi.

Asosiy qism: Oltiariq tumani 1926 yili tashkil etilgan. Tuman janubdan Farg'ona, shimoldan Namangan viloyati, g'arb va shimoli-g'arbdan Rishton, Buvayda hamda Bag'dod, shimoli-sharqdan Oxunboboyev, Yozyovon tumanlari va janubdan Qirg'izistonning Qadamjoy tumani bilan chegaradosh. Tuman markazi 470 m balandlikda, viloyat markazi Farg'ona shahridan 35 km, yaqin temir yo'l stansiyasidan 6 km masofada joylashgan. Maydoni 0,631 ming km² bo'lib, shimoliy qismining relyefi keng tekislik bilan davom etib ketgan. Tumanga bo'ysunuvchi 1 ta shahar, 72 ta mahalla fuqarolar yig'ini, 18 ta aholi yashash punkti mavjud. O'zbekiston hududida dastlabki aholi ro'yxati 1897-yilda o'tkazilgan, aholi soni 3,9 mln kishini tashkil qilgan. Aholi soni 2022 – yil 1-oktabr holatiga ko'ra 222 336 kishini tashkil etib, shulardan erkaklar soni 113 511 kishini va ayollar esa 108 825 kishini tashkil etadi. Tuman hududining janubiy qismida adirlar, soylarning yoyilmalari, qumli sho'rxoklar mavjud. Adirlar va adir etaklarining balandligi 500 – 700 m. Bu yerlar tog'lardan oqib tushadigan ko'p soylarning qadimiy konglomeratlaridan — So'x svitasi komplekslaridan tarkib topgan. Qalinligi 80–200 m atrofida[1].

Iqlimi quruq va sershamol. Bahor va kuz oylarida shamol bo'lib, tezligi sekunda 12–15 m ni tashkil etadi. Qish yumshoq, ba'zan esa qattiq kechadi. Qor qoplanishi barqaror emas, ba'zi qish kunlarida issiq harorat kuzatiladi, yozi esa issiq. Yillik o'rtacha temperatura 18°C, iyulda 310— 40° C, eng yuqori temperatura 55°C, yanvarda o'rtacha temperatura —2°C, eng past temperatura —23°C. Vegetatsiya davri 210 kun, yillik yog'in 100–180 mm. Bahorda shamollar ba'zan tuproqning sirt



qatlamlarini quritib, yosh paxta va boshqa o'simliklarning ildiz tizimini ochib beradi. Bu yerda shamol kuchi soniyasida 30-35 m gacha yetishi mumkin.

Suvlari: Tumanning ekin maydonlari Oltiariqsoy, Janubiy Farg'ona, Katta Farg'ona, Katta Andijon, So'x-Shohimardon kanallaridan suv oladi. „Qo'rg'ontepa“, „Keng ko'l“ suv omborlari qurilgan. Cho'l qismida yirik mineral suv havzasi bor. Daryolar ko'p suvli, sug'orish uchun qulay drenaj usullari mavjud. Maksimal suv xarajatlari yoz oylariga to'g'ri keladi.

Tuproqlari: Adirlarning Markaziy Farg'ona tekisliklariga qo'shilib ketgan qanotlari yoyilma ko'rinishida bo'lib, toshli-shag'alli, gilli va qumoq jinlardan iborat. Ularning hammasi antropogen davrining turli yoshdagi yotqiziqlaridir. Shimoliy qismining relyefi keng tekislik bo'lib, yuzasini qum, gil, o'nlab metr chuqurlikda toshli-shag'alli jinlar qoplab yotadi. Ularning tagida 400 m qalinlikda paleogen davrining karbonatli dengiz cho'kindilari bor. Adir va adir etaklarida och bo'z, to'q bo'z, qo'ng'ir bo'z, markaziy va shimoliy qismida o'tloqi, o'tloqi-botqoq sho'rxok tuproqlar tarqalgan.

O'simlik va hayvonot dunyosi: Yovvoyi o'simliklardan adirlarda shuvoq, bahorda efemer va efemeroidlar, markaziy va shimoliy qismidagi qumliklarda sho'ra, yulg'un, selin, yantoq va boshqalar o'sadi. Yovvoyi hayvonlardan bo'ri, quyon, tulki, olmoxon, tipratikan, o'qilon, chiporilon, burgut, boyo'g'li, kalxat, qiyg'ir kabi hayvonlar mavjud.

Tuman hududida respublika ahamiyatiga ega bo'lgan Toshkent—Farg'ona hamda mahalliy Marg'ilon—Qo'qon, Vodil—Uchuy avtomagistrallari o'tgan. Qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i — dehqonchilik. Oltiariq tumanlarining ayrim botqoq hududlarida sholi ekiladi

Korxonalar va tashkilotlar yagona registr ma'lumotlariga ko'ra, 2022- yilning 1-oktabr holatiga ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar soni 2 649 tani tashkil qilib, shundan 2 543 tasi yoki 96,0 %i faoliyat ko'rsatmoqda. Yil boshidan jami 341 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa, 66 ta korxonalar va tashkilotlar tugatilgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi savdo 821 ta (31,0 %), sanoat 473 ta (17,9 %), boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish 499 ta (18,8 %), qurilish 144 ta (5,4 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 175 ta (6,6 %) hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 155 ta (5,9 %) sohalariga to'g'ri keladi. Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra 2 543 tani tashkil yetib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 274 taga yoki

112,1 %ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 30,8 % savdo, 17,9 % sanoat, 5,5 % qurilish, 6,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 5,7 % qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 10,8 % tashish va saqlash, 1,5 % axborot va aloqa, 2,2 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 19,2 % boshqa faoliyat turlari xissasiga to'g'ri keladi. Mulkchilik shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarning



(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) umumiy sonining 206 tasini yoki 7,8 %ini davlat korxonalarini tashkil etib, qolgan 2 443 tasi yoki 92,2 %ini nodavlat korxonalar ulushiga to'g'ri keladi. 2022- yilning 1- oktabr holatiga Oltiariq tumanida jami 581 ta oilaviy korxonalar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, faoliyat ko'rsatayotganlari esa 555 tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 95 taga ko'paygani kuzatilgan. Oltiariq tumanida ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalarining viloyatda tutgan ulushi 8,4 %ga teng bo'lib, o'tgan yilga nisbatan 0,4 %ga ko'paygan, mos ravishda faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining viloyatdagi ulushi 0,6 %ga ko'payib, 8,6 % ni tashkil etgan. Yil boshidan 89 ta oilaviy korxonalar tashkil etilgan bo'lsa, ushbu vaqtgacha 20 ta oilaviy korxonalar tugatilgani kuzatish mumkin. Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilning 1-oktabr holatiga ro'yxatga olingan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 2 350 tani tashkil etib, shundan 2 252 tasi yoki 95,8 % faoliyat ko'rsatmoqda. Yil boshidan 341 ta kichik tadbirkorlik subyektlari yangi tashkil etilgan bo'lsa, 66 ta kichik tadbirkorlik subyekti esa tugatilgan[2].

Xulosa: Mehnat resurslari soni miqdoriy ifoda bo'lsa, mehnat yoshidagilarning bilim saviyasi, malakasi, kasbiy mahorati va ishbilarmonligi uning sifatini yaratadi. Ta'lim-tarbiya, malakani oshirish, sog'liqni ta'minlash, uni mustahkamlash uchun sarflar inson kapitaliga investitsiya bo'lib, mehnat resurslarini takroran yaratishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Oltiariq tumanining statistik axborotnomasi. 2002-yil yanvar-setabr.
3. Tojiyeva Z. Iqtisodiy va demografik statistika. O'quv qo'llanma. -T., 2002.
4. Oltiariq tumani Mehnat resurslari balansi 2022-yil yanvar-sentabr balansi

STATISTIK

STIK AXBOROTNOMASI